
BESH YUZGA YAQIN XONADON TOZA ICHIMLIK SUVI BILAN TA'MINLANADI

???? Toza ichimlik suvi ko'pchilik tuman-u, qishloqlarda ayniqsa, eng chekka hududlarda yashaydigan aholini qiynaydigan muammolar ro'yxati boshida turadi. Aholini toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojini qondirish, ushbu yo'nalishda yillar mobaynida yig'ilib qolgan muammolarni bartaraf etish davlatimiz tomonidan olib borilayotgani ijtimoiy islohotlarning asosiy yo'nalishiga aylangan. Bu borada "Farg'onasuvta'minoti" MChJ Rishton tuman filliali tomonidan ham qator ishlar amalga oshirilmoqda.

???? Tumanidagi "Amirobod" mahallasi aholisi ham bugungi o'zgarish-u yangilanishlarni shukronalik bilan qarshi olishmoqda. Boisi, yaqin kunlarda ularning yillar davomidagi orzulari ushalib, har bir xonadonga toza ichimlik suvi kirib boradi. Demak, mashaqqat-u ortiqcha sarf harajatlarga chek qo'yiladi.

* "Amirobod" MFYda "Obod mahalla" dasturi asosida 6.7 km tarmoq tortildi, bitta yangi quduq, bir dona transformator o'rnatilmoqda. Buningnatijasida 480 dan oshiq xonadon toza ichimlik suvi bilan ta'minlanadi.

□ Islohotlar natijasida toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan aholi insonparvar islohotlardan roziligini bildirdi.

2022-11-23 14:02:02